**ESSE**

*Akbarali Boymirzayev namunasi*

Hozirgi kunga kelib har bir odam hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun o'ziga mos kasb tanlashi zarur. Ba'zilar bir mutaxassislikni chuqur egallab, o'z kasbining ustasi bo'lishni ma'qul ko'rishadi. Ayrimlar esa, bu sinovchan dunyoda bir nechta hunarning sohibi bo'lishni afzal bilishmoqda. Aslida-chi, insonlar farovonlikka erishish uchun qaysi yo'ldan borganlari o'rinliroq?

Rivojlanib borayotgan zamonda hech bir kishi bir joyda qotib qolishni xohlamaydi. Yangi paydo bo'layotgan sohalardan qo'shimcha ish sifatida foydalanadiganlarning asosli sabablari mavjud. Jumladan, bunday faoliyat qo'shimcha daromad va moliyaviy jihatdan erkinlikni ta'minlaydi. Lex.uz saytining ma'lumotlariga qaraganda 2023-yildan beri O'zbekistonda qo'shimcha ish faoliyati bilan shug'ullanganlarning yillik daromadi 30-40% ga oshgan. Bundan tashqari, shaxsiy rivojlanishga va kognitiv ustunlikning yuqori bo'lishiga ko'maklashadi. Masalan: London universiteti tadqiqotlariga ko'ra, ko'p soha bilan mashg'ul bo'luvchilarning miyasida neyron bo'linishlari yaxshi bo'ladi, natijada diqqatni jamlash, muammolarni hal qilish, tahliliy va ijodiy yondashish boshqalarga qaraganda ancha baland bo'lishi isbotlangan.

▶ Elon Mask „ Siz hamma narsani bilishingiz kerak emas, lekin ō'z sohangizni mukammal bilishingiz shart ", - deganidek yagona mutaxassislikni ma'qullovchilarning ham anchagina asoslari bor. Birinchidan, mukammallik, chuqur bilim va yuqori sifatni kafolatlaydi. Malkolm Gladwellning „10000 soat qoidasi" bo'yicha, inson bir sohada 10000 soatlik tajriba oshirsa, ō'sha kasbning yetuk bilimdoniga aylanadi. Ikkinchidan, faqat bir yo'nalishda faoliyat olib borish ishonchli va barqaror ish o'rnini yaratadi. Misol uchun, dunyoga mashhur Google va Microsoft kampaniyalari tor ixtisoslikka ega dasturchilarni uzoq yillik shartnomalar asosida ishga qabul qiladi.

Fikrimcha, ikki qayiqning boshini tutgan chōkadi deganlaridek, ō'z kasbining peshqadami bo'lish har tomonlama ustundir. Chunki bir faoliyat bilan mashg'ul bo'lish insonlardagi stressni kamaytiradi va samarali ish olib borishni ta'minlaydi. Shifokorlar va yuristlar ō'z kasbini yillar davomida mukammal egallashadi, shuning uchun ular ō'z ishlaridan zavqlanishadi. Hamda, aniq bilim va ko'nikmalar asosida ishlarini amaliy jihatdan yuqori darajada olib boradi.

Xulosa qilsak, bir sohani mukammal egallash XXI asrda ko'plab muvaffaqiyatlar eshigini ochadi. Zero, bir yo'nalishdan borish eng to'g'ri yo'ldir!

NAMUNAVIY ESSE 22 BALL